



MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARINING AVTOBIOGRAFIK XARAKTERI

Hamdamov Ulug‘bek Hasan o‘g‘li

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

+998990570950

E-mail: hamdamov_u95@mail.ru

Annotatsiya. Mahmudxo‘ja Behbudi o‘zbek adabiyoti tarixida etuk ma‘rifatchi sifatida o‘zining ilmiy, adabiy, siyosiy va pedagogik qarashlari, ilmiy va badiiy merosi, go‘zal axloqi va ibratli hayoti bilan o‘chmas iz qoldirgan. Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatiga doir ayrim mulohazalar yuritilgan. Ijodkorning avtobiografiyasi, ya‘ni tarjimayi holining o‘z asarlarida qay darajada aks etganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jadid, ma‘rifatparvarlar, Behbudi, tarjimayi hol, avtobiografizm

Abstract. Makhmudkhodja Behbudi, as a prominent enlightener, left an indelible mark on the history of Uzbek literature with his scientific, literary, political and pedagogical views, scientific and artistic heritage, beautiful morals and exemplary life. This article presents some reflections on the life and work of Makhmudkhodja Behbudi. The extent to which the creator's autobiography, that is, his biography, was reflected in his works, is analyzed.

Keywords: Jadid, Enlightenment, Behbudi, biography, autobiography

O‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyoti va ma‘rifatparvarlik harakatining zabardast vakili Mahmudxo‘ja Behbudi (1875–1919) o‘zining serqirra faoliyati orqali o‘zbek xalqi ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Behbudi shaxsiy hayoti davomida o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan ijtimoiy adolatsizlik, jaholat va mustamlakachilik oqibatlarini o‘z asarlarida chuqur aks ettirdi. Uning adabiy va publitsistik faoliyati, zamonaviy ta‘lim va islohotlar tarafdori sifatidagi g‘oyalari shaxsiy hayot tajribasi va ma‘rifiy idealizmi bilan chambarchas bog‘liq. Shunday qilib, Behbudi asarlarida faqat davr ruhiyati emas, balki adibning o‘z hayoti, orzu-umidlari, iztiroblari va kurashlari ham aks etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘z qo‘li bilan yozgan tarjimayi holi shu kungacha topilgani yo‘q. Ammo tadqiqotchilar Hoji Mu‘in, Sadriddin Ayniy va boshqalarning “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Ishtirokiyun”, “Qizil

bayroq”, “Известия ТуркЦИК”, “Buxoro axbori” gazetalarida, “Inqilob”, “Uchqun”, “Maorif va o‘qituvchi”, “Hayka i просвещение” jurnallari va boshqa manbalar zaminida uning tarjimai holini tiklab e‘lon qildilar⁹.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Samarqandda tug‘ilgan va dastlab eski maktabda tahsil olgan. Ammo XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti va Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining kuchayishi unga millatni ma‘rifat bilan qutqarish zarurligini anglatdi. U dastlab tog‘asi qo‘l ostida qozilik qiladi, mirzolik bilan shug‘ullanib, shariat ahkomlari bilan tanishadi va fiqh-huquqshunoslik sohasidagi ilmi va malakasini oshirib boradi. U fiqh sohasida jiddiy ilmiy-amaliy faoliyat olib borishi tufayli “mufti”, ya‘ni fatvo beruvchi – advokat unvonini olishga sazovor bo‘ladi. Ammo bu sohada uzoq vaqt ishlamaydi. Behbudiy qozilik lavozimidan voz kechib, xalqni uyg‘otish, yangicha fikrni shakllantirish uchun faol harakat qila boshladi. Bu tajribalar uning “Risolayi asbobi savod” risolasida aniq ko‘rinadi, unda u eski maktablarning usullarini qattiq tanqid qiladi va yangi zamonaviy metodikani taklif qiladi¹⁰.

Behbudiy 1893-yildan Rusiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy gazeta-jurnallarni, kitoblarni jahd bilan o‘qishga tutinadi. Zamona voqealari bilan tanishib, siyosat va ma‘rifat sohasida ro‘y berayotgan yangiliklarni sinchkovlik bilan kuzatadi. Xalqning ma‘rifatsizligini, ziyolilarning avomlashganini ko‘rib, avvalo, oilasida ma‘rifatni kuchaytirishga harakat qiladi. Farzandlari ta‘lim-tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berib, ularning xat-savodli, zamon talabidagi mutaxassis bo‘lib yetishuviga sharoit yaratadi. Farzandlariga xususiy o‘qituvchilar yollab, rus, fransuz va boshqa xorijiy tillarni o‘rgatishga harakat qiladi. Bu xatti-harakatlarining sabab-oqibatini o‘zining “Ikki emas, to‘rt til kerak” (1913) nomli maqolasida bayon qilgan.

“Padarkush” (1911) dramasida esa ijtimoiy adolatsizlik va ma‘rifatsizlikning oqibatlari haqida fikr yuritiladi. Asardagi Toshmurod obrazi orqali Behbudiy yoshlarning ilmga befarqligi va ota-onaga nisbatan befarqligi oqibatlarini fojiali tarzda ko‘rsatadi. Bu fojia Behbudiyning o‘z hayotida guvohi bo‘lgan jamiyatdagi johillik va tarbiyaning buzilishi muammolarining badiiy ifodasidir. Behbudiy o‘zi ko‘rgan ijtimoiy muammolarni badiiy obrazlar orqali ko‘rsatib, tomoshabinning hayot haqida chuqur o‘ylashiga undaydi. Behbudiy ana shunday mudhish holatni, oqibatni o‘zgartirish uchun, avvalo, millatni

⁹ Ahmad Sirojiddin. Turkiston xalqining milliy qahramoni. //M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to‘plami// – T.: 2014. – B.5.

¹⁰ Sharafiddinov O. O‘zbek ma‘rifatparvarlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – B.129.




ma'rifatlashtirish lozim, degan fikrga kelgan. Behbudiyning mazkur masalaga doir maqolalarini o'qigan kitobxonlar o'sha yillarda maktab va madrasalarning ham, muallimlarning ham yetishmaganligini, darslik va o'quv qo'llanmalari esa, anqoning urug'i bo'lganligini yaxshi bilishadi. Behbudiy shu holni e'tiborga olib, o'zi maktablar ochdi, o'zi darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratdi, dunyoviy fanlarning maktab o'quv dasturlaridagi mavqeini oshirdi.

Behbudiyning millatni ma'rifatlashtirish konsepsiyasi, birinchidan, yangi usul maktablarini ochish, ikkinchidan, bu maktablarda dunyoviy fanlarning ustuvorligiga erishish, uchinchi, ularni zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalari va qurollari bilan ta'minlash, to'rtinchidan, ota-onalarning to'y va ma'rakalarga sarflaydigan mablag'laridan bir qismini mahalliy maktabni bitirgan bolalarining xorijiy mamlakatlardagi dunyoviy va diniy oliy o'quv yurtlariga yuborish, beshinchidan, ularning turkiy, fors va arab tillaridan tashqari, rus va nemis yoki fransuz tillarini ham o'zlashtirishiga erishish, oltinchidan, zamonaviy sudya, huquqshunos, injener kabi Turkiston uchun noyob bo'lgan ixtisosliklar bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalarini o'z ichiga olgan¹¹.

“To'y va ma'raka oqchasidan, - deb yozgan edi Behbudiy, - bolalarni hukumat maktablariga berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg'a va Rusiya dorilfununi va dorilsaltanatlarig'a yuborib, diniy va dunyoviy odamlar yetishturmoqg'a sa'y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to'yu ma'rakag'a sarf qilinaturg'on oqcha ila Kafkaz, Qrim, O'runburg va Qozong'a usuli ta'lim o'rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur. Hukumat maktablariga kirmoq uchun ruscha bilmoq va imtihon bermoq lozim. Bu imtihonni bermoq uchun har bolani ikki sana ruscha o'qutub, tarbiyat etmoq kerak. Va bu ikki sana uchun har bir bolag'a 600 so'm oqcha kerakdur”¹². Behbudiy “A'molimiz yoinki murodimiz” degan va boshqa maqolalarida ma'rifiy qarashlarini izchil bayon etar ekan, bolalar uchun tarbiyaxona – pansionatlar ochish, bolalarni shu tarbiyaxona va hukumat maktablariga tayyorlash uchun turli jamiyatlarni tashkil etishni lozim, deb hisoblaydi. Zero, Mahmudxo'ja “Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki

¹¹ Karimov N. Erk va hurriyat jarchisi. //M.Behbudiy merosining milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to'plami// – T.: 2014. – B.33.

¹² Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – B.159



dunyoda turmuk uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”¹³, deganida ham haq edi.

Behbudiy o‘z hayoti davomida Istanbul, Boku, Tiflis, Moskva va Hindiston kabi shahar va mamlakatlarga sayohat qilgan. Ushbu sayohatlar davomida u zamonaviy dunyo rivoji va musulmon mamlakatlaridagi islohot harakatlari bilan yaqindan tanishdi. Bu taassurotlar uning publitsistik maqolalarida o‘z aksini topdi. Hindiston mustamlakachilik ostidagi holatini tahlil qilib, Turkiston xalqini ham ogohlantirishga urindi. Bu sayohatlari davomida nafaqat Rossiya, balki Makka, Madina, Misr, Istanbul, shuningdek, turkiy xalqlar istiqomat qilgan Kavkaz, Qrim, Orenburg, Qozonga borib, shu yerdagi dorilfununlar yordamida ma’rifatli bo‘lish, eng muhimi, davlat muassasalarida, tijorat sohalarida ishlay biladigan kadrlarni tayyorlash orqaligina istiqol uchun kurashish mumkin degan xulosaga keldi.

Sayohat taassurotlarining yana bir yorqin ifodasi sifatida uning “Sayohatnoma” (yozilgan bo‘lsa-da, to‘liq shaklda bizgacha etib kelmagan) maqolalari va ayrim eslatmalari tilga olinadi. Tadqiqotchi T.Shodmonov ta’kidlaydi: “Behbudiy uchun sayohat nafaqat geografik manzillarni ko‘rish, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni his qilish maktabi edi”¹⁴.

Mahmudxo‘ja Behbudiy diniy bilimlarga asoslangan holda milliy o‘zlik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish tarafdori edi. Qator maqolalarida islom dinining asl mohiyati haqida to‘g‘ri va ilmiy yondashuvni ilgari suradi. U eskicha e’tiqod va bid’atlarga qarshi kurashadi, aql va ilmni islomning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi¹⁵.

Bu yondashuv Behbudiyning shaxsiy hayotidagi diniy tajribalarning natijasidir: u diniy tahsil olgan bo‘lsa-da, zamonaviy ilmsizlik va diniy taassub ko‘plab muammolarga sabab bo‘lishini chuqur anglagan edi. Shunday qilib, Behbudiy diniy islohotchilikni ma’rifatparvarlikning asosiy qismi sifatida ko‘radi.

1917-yilgi fevral inqilobidan keyin Behbudiy siyosiy faoliyatini yanada faollashtiradi. Shu davr maqolalari va nutqlarida uning shaxsiy iztiroblari, millat ravnaqi uchun jon kuydirish kayfiyati aniq aks etadi.

Masalan, 1917-yilgi maqolalaridan birida Behbudiy shunday deydi: “Haqiqatni bilmaydurgan, ilmga etmaydurgan millat, mustamlaka zanjirida

¹³ Behbudiy M. Ehtiyoji millat. – “Samarqand” gazetasi, 1913-yil, 12-iyul

¹⁴ Shodmonov T. Turkiston jadidlari va diniy islohot. – Toshkent: Ma’rifat, 2011. – B.214

¹⁵ Shodmonov T. Turkiston jadidlari va diniy islohot. – Toshkent: Ma’rifat, 2011. – B.217



qolur”. Bu g‘oya uning butun ijodining va hayot kurashining mohiyatini ifodalaydi.

Behbudiyning asarlarida ko‘plab avtobiografik elementlar mavjud. Masalan, “Padarkush”dagi domla obrazida ma’rifatparvar, ilmi insonning jamiyatdagi ijtimoiy kurashini ko‘rish mumkin. Ayrim manbalarga ko‘ra, domla obrazi Behbudiyning o‘z idealining badiiy ifodasi sifatida qaraladi¹⁶.

Shuningdek, “Risolayi asbobi savod”dagi ta’lim tizimini isloh qilish g‘oyalari ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri Behbudi o‘zining o‘qituvchilik faoliyati tajribasiga asoslangan.

Mahmudxo‘ja Behbudi ijodi o‘zining shaxsiy hayoti, jamiyatdagi o‘rni va ma’rifat yo‘lidagi kurashining badiiy va publitsistik aksidir. U o‘z asarlari orqali o‘z zamonasining og‘riqli muammolarini ko‘rsatish bilan birga, shaxsiy orzularini, iztiroblarini va milliy uyg‘onishga bo‘lgan sadoqatini ham ifoda etgan. Behbudiyning asarlari bugungi kunda ham ilm, ma’rifat va milliy o‘zlik yo‘lidagi mashaqqatli, lekin muqaddas kurash ramzi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddinov O. O‘zbek ma’rifatparvarlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999
2. Abdugapparov H. Mahmudxo‘ja Behbudi va ma’rifatparvarlik harakati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017
3. Davron X. Jadidlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 2004
4. Shodmonov T. Turkiston jadidlari va diniy islohot. – Toshkent: Ma’rifat, 2011
5. Karimov I. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007
6. Behbudi M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999
7. Behbudi M. Ehtiyoji millat. – “Samarqand” gazetasi, 1913-yil, 12-iyul
8. Karimov N. Erk va hurriyat jarchisi. //M.Behbudi merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to‘plami// – T.: 2014
9. Ahmad Sirojiddin. Turkiston xalqining milliy qahramoni. //M.Behbudi merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to‘plami// – T.: 2014

¹⁶ Karimov I. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – B.147

